

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 10 - noyabr

244-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 73-moddasiga muvofiq hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Nukus shahar ichki ishlar organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2023-yil 25-oktabrdagi 1/2981-sonli xatiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 1-noyabrdagi RS/12-02/4134-sonli xatini inobatga olib,

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Nukus shahar ichki ishlar organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi tarkibidagi 3-sektor shtabi hamda 1,2,3,4-sonli Ichki ishlar bo'limlarida xizmat faoliyatida foydalanish uchun 6 dona rangli printer bilan ta'minlash maqsadida jami 30 000 000 (o'ttiz million) so'm mablag'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov) 30 000 000 (o'ttiz million) so'm mablag'ni qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi boshqarmasidan (B.Utambetov) ajratilgan mablag'ning qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari N.Erlepesov zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
Raisi



F.Ermanov